# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024
№ 5




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 656 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri oʻrinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., OʻzR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "OʻIRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Poʻlatov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamgʻarmasi ijrochi direktori oʻrinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** t.f.f.d., TAQU katta oʻqituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Fargʻona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon oʻgʻli,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** OʻzR Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farxod,** OʻzR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boʻlimi boshligʻi
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta oʻqituvchisi

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, OʻzR Tabiat resurslari vazirligi, OʻzR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA


Uy-joy qurilishi madaniyati, uning oʻziga xos xususiyatlari va tamoyillari ........ 10
**Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon Gʻaybulla oʻgʻli**

Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari ........ 16
**Akbarov Bekmurod Miryakubovich**

Qoraqalpogʻiston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi ........ 22
**Norchayev Asatullo Norboʻtayevich**

Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy ........ 28
**Tulagan Tukhtaraliev, Gʻaniev Muhammadjon Xalilovich**

Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish ........ 31
**Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi**

Oʻzbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida ........ 34
**Uraimjonov Azizbek Raxmonjon oʻgʻli**

Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (Oʻzbekiston misolida) ........ 40
**Egamov Sevinchbek Maxsud oʻgʻli**

Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export ........ 46
**Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna**

Oʻzbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari ........ 49
**Hojiyev Tal'at Toshpoʻlatovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yoʻllari ........ 54
**Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi ........ 57
**Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich**

Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari ........ 61
**Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdigʻani qizi**

Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari ........ 68
**Uralov Olimjon Mahammadjonovich**

Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi koʻrsatkichlari dinamikasini tahlil qilish ........ 72
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar ........ 77
**A. I. Raxmatov**

Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана ........ 83
**Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи**

Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili ........ 88
**Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin oʻgʻli**

Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili ........ 94
**R. I. Pardayev**

Katta hajmga ega boʻlgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri ........ 101
**Raxmanova Xuriniso Egamovna**

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati ........ 104
**Rajjaboyeva Dildora Zakirovna**

Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash ........ 110
**Nilufar Sharipova**

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati ........ 114
**Karimov Shamsiddin Akram oʻgʻli**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari ..... 122
**Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi**

Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari ..... 127
**Davronbek Sharibjonovich Raximov**

Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili ..... 133
**Aminov Farrux Farxadovich**

Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 138
**G. J. Jumayeva**

Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari ..... 141
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliini boshqarishdagi muammolar ..... 146
**Nematova Shaxlo Egamberdiyevna**

Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari ..... 149
**Xakimov Zohid Norbo'tayevich**

Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish ..... 158
**Zoirov O'lmas Erkin o'g'li**

Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash ..... 164
**Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna**

Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана ..... 168
**Иноятова Камола Фуркатовна**

Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni ..... 172
**X. X. Ikramov**

Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 176
**Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li**

Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida) ..... 182
**Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov**

Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli ..... 189
**Rabimqulov Sherzod Murtozayevich**

Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari ..... 193
**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**

Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi ..... 198
**Boltaboev Murodbek Aybekovich**

Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi ..... 203
**X. I. Boyev**

Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi ..... 207
**Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi**

Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak ..... 216
**Farhod Bagibekovich Xalimbetov**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili ..... 220
**Valiyeva Sayyora Xushbaqovna**

Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования ..... 227
**Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи**

Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность ..... 232
**Шермаматова Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли**

ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности ..... 238
**Фаттахова Муниса Абдухамитовна**

Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi ..... 243
**Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг ........ 248
**Розоков Мухаммадазиз Мансурович**

Factoring Operations in Banks ........ 253
**Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna**

Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish ........ 257
**Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo‘jamurodov Asqarjon Jalolovich**

O‘zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati ........ 264
**Oybek Elmuratov**

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish ........ 268
**Uzakova Umida Ruzievna**

Tashkent Economy – Locomotive of the Country’s Economy ........ 274
**Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich**

O‘zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomilashtirish yo‘llari ........ 278
**Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna**

Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari ........ 284
**Norqobilov Nusrat Norsaitovich**

Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi ........ 288
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna**

Mahalliy budjetlar mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlashning eng asosiy istiqbolli yo‘nalishi ........ 295
**S. Y. Ismoilova**

Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish ........ 300
**Qurbonova Firuza Solexovna**

Oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi ........ 306
**AbdulAziz Norqo‘chqorov Ziyadullayevich**

Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo‘llari ........ 312
**Olimova Nodira Xamrakulovna**

Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish ........ 324
**Ochilov Farxodjon Shavkatjon o‘g‘li**

Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvida faoliyat uzluksizligini baholash ........ 331
**Tulovov Erkinjon To‘lqin o‘g‘li**

Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий ........ 335
**Махкамова Надира Саидмуратовна**

Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlarining tahlili ........ 340
**Otajonova Gulhayo Maqsud qizi**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish ........ 345
**Xudoyorov Laziz Niyozovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna**

Mamlakatimzda aksiz to‘lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari ........ 351
**Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich**

Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilingan mablag‘lar orqali moliyalashtirishning zarurligi ........ 357
**Amonova Dilafro‘z O‘tkurovna**

To‘lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish ........ 362
**Axmedov Miraziz Alisherovich**

Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari ........ 367
**Hamrokulov M. O.**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalari faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi ... 375
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich**

Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati ... 379
**Raxmatov Temur Sotiboldiyevich**

Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе ... 388
**Шадиева Дилдора Хамидовна**

Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan oʻzbekistonda foydalanish imkoniyatlari ... 392
**Jumaniyazova Feruza Rajabovna**

Tut parvonasi zararkunandasining biologik tarqalishi va zararini oldini olish choralari ... 402
**Oybek Toshtemirovich Karimov**

Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kamsitish ... 406
**Iminova Nargizaxon Akramovna**

Ishsizlik nafaqalari tayinlash va xalqaro tajriba ... 412
**Sholdarov Dilshod Azimiddin oʻgʻli**

Takroriy ekinlar urugʻini toʻgʻridan-toʻgʻri nol ishlov berish orqali ekadigan qurilmaga tushadigan yuklamaning nazariy tadqiqoti ... 418
**Abdullayev Baxodirjon Valijon oʻgʻli**

Banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining roli ... 422
**Abdullayeva Dildora Qudratovna**

Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartari asosida tashkil etishning uslubiy jihatlari ... 425
**Adxamov Samariddin**

Barqaror iqtisodiy oʻsishga erishishda toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati ... 430
**Asqarova Mavluda Turabovna, Otajonova Charosxon Polvonquli qizi**

Ilmiy-innovatsion iqtisodiyotda suv xoʻjaligini rivojlantirish muammolari, yechimlar va natijalar: fundamental asosda ... 435
**Babadjanov Abdirashid Musayevich**

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro standartlari ... 441
**Maxamadaliyeva Mahliyoxon Maxamadmurod qizi**

Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari ... 448
**Masharipov Maxmud Bekturdiyevich**

Tijorat banklarning moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatar va uning mohiyati ... 453
**Rashidov Raximjon Iskandarovich, Abduraxmonov Anvar Akbar oʻgʻli**

Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirish omillari va hozirgi holatining tahlili ... 459
**Samijonov Musobek Gʻayratjon oʻgʻli**

Moliyaviy menejment tizimi samaradorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasidan foydalanish ... 466
**Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich**

Oʻzbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida byudjetdan tashqari jamgʻarmalarning ahamiyati va oʻrni ... 473
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Ajibayeva Rauiya Maxsudovna**

Aholi daromadlarini oshirishda asalarichilikning oʻrni ... 479
**Xudayarova Zuxra Yuldashevna**

Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ ... 482
**Бекназова Комилахон Миркамол қизи**

Tijorat banklari faoliyatida iqtisodiy risklar va ularni nazariy asoslari ... 490
**Burxonov Asliddin Asqar oʻgʻli**

Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi ... 497
**Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана ........ 503
**Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна**

Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ........ 509
**Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich**

Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане 513
**Холдарова Фариза Тухтабаевна**

Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют ........ 519
**Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Искандарович**

Efficiency of Internal Audit Service and Report Improvement: Control of Sanatorium-Wellness Institution ........ 528
**Shafkarov Fahriddin Khudaiberdievich**

Development of Digital TV Services in the Conditions of Digitalization of the Economy ........ 534
**Farhad Karimov**

Kichik biznes faoliyatida muhim muvaffaqiyat omillarini belgilashning ahamiyati va ularni baholash ........ 538
**Kabulova Nurgo'zal Umirbek qizi**

Barqaror iqtisodiy o'sishni ekonometrik tadqiq etish ........ 541
**Muminova Maxbuba Abduvafoyevna**

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini baholash ........ 548
**Musurmonova Mahbuba Omonovna**

Tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini ichki tartibga solishni takomillashtirishning ayrim jihatlari.. 552
**To'rayev Nurbek Muxammadovich**

Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili ........ 557
**Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich**

Strategik boshqaruv hisobi va uning uslubiyotini takomillashtirish masalalari ........ 562
**Sharipova Shoxida Abdinabiyevna**

O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari ........ 567
**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li**

Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning kontseptual jihatlari ........ 574
**Sultanov Maxmud Axmedovich**

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning ayrim me'yoriy-huquqiy asoslari ........ 578
**Turanov M. Sh.**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining o'rni ........ 586
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Zubaydullayeva Zulayxo Karimovna, Kaxarova Dildora Erkinovna**

O'zbekistonda tayyor kiyimlar bozori ko'lamini oshirishda marketing strategiyalarining samaradorligi ........ 596
**Urazov Mansur Musurmanovich**

Yevropaga barqaror eksport va qishloq xo'jaligida yashil rivojlanish uchun
Mosh bozori strategiyalarining ta'sirini baholash ........ 599
**Valiyeva Aziza Anvar qizi**

Rangli tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonlarini paralellashtirish ........ 605
**Xidirova Barchinoy Ilxomovna**

Korxonalarda ishchi personal ehtiyojlarini motivatsiyaga ta'siri ........ 610
**Aripov Oybek Abdullayevich, Axmedov Muzaffar Shokirjonovich**

Цифровые и традиционные методы сбора информации в
маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ ........ 615
**Бекназова Комилахон Миркамол қизи**

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari ........ 623
**Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.**

Positioning Textile Products in Competitive Strategy ........ 626
**Икрамова Нодира Бурхон қизи**

Sanoatni tarkibiy oʻzgarishlar asosida maqbullashtirish va samaradorlik koʻrsatkichlarini prognozlash ............ 631
**Kasimov Azamat Abdukarimovich**

Oʻzbekiston Respublikasi budjetini shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi .................... 638
**Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna**

Toʻqimachilik klasterlari eksport salohiyatini boshqarish masalalari ........................................ 645
**Mamasoliyev Gʻayratbek Maxamadyusupovich**

Влияние плодородности почвы на урожайность хлопчатника в хлопково-текстильных кластерах Республики Каракалпакстан ........................................ 650
**Сагиева Молдир Оразбай кизи**

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJETINI SHAKLLANISHIDA EGRI SOLIQLARNI UNDIRISHNING FISKAL SAMARADORLIGI

**Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna**
TDIU doktoranti

Annotatsiya: Egri soliqlar bugungi kunda aksariyat davlatlar singari, O‘zbekiston Respublikasida ham davlat budjetini shakllantirishdagi eng istiqbolli soliqlardan biri hisoblanadi. U soliq tizimining ajralmas qismi bo‘lib, yuqori fiskal samaraga egadir. Soliq to‘lovchilari soliqlarni to‘g‘ri hisoblash va o‘z vaqtida soliqlarni to‘lash soliq qonunchiligini buzilish holatlarini kamayishiga zamin yaratadi. Bu borada bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ushbu maqolada uni bartaraf etish jihatlarga e’tibor beriladi.

Kalit so‘zlar: davlat byujjeti, QQS, aksiz solig‘i, bojxona boji, soliq nazorati, soliq tizimi, soliq islohoti, soliq siyosati, soliqqa tortish, soliq ma’murchiligi, soliq to‘lovchi, soliq imtiyozi.

Abstract: Indirect taxes are one of the most promising taxes in the formation of the state budget in the Republic of Uzbekistan, since today in most countries they are an integral part of the tax system and have high fiscal efficiency. Correct calculation of taxes and timely payment of taxes by taxpayers will reduce cases of violations of tax legislation. There are a number of problems in this regard, and this article will discuss aspects of their elimination.

Key words: state budget, VAT, excise tax, customs duty, tax control, tax system, tax reform, tax policy, taxation, tax administration, taxpayer, tax benefits.

Аннотация: Косвенные налоги являются одним из наиболее перспективных налогов при формировании государственного бюджета в Республике Узбекистан, так как сегодня в большинстве стран они являются неотъемлемой частью налоговой системы и обладают высокой фискальной эффективностью. Правильный расчет налогов и своевременная уплата налогов налогоплательщиками позволят снизить случаи нарушений налогового законодательства. На этот счет существует ряд проблемы, и в данной статье речь пойдет об аспектах их устранения.

Ключевые слова: государственный бюджет, НДС, акциз, таможенная пошлина, налоговый контроль, налоговая система, налоговая реформа, налоговая политика, налогообложение, налоговое администрирование, налогоплательщик, налоговые льготы.

## KIRISH (INTRODUCTION)

Ma’lumki, O‘zbekiston bozorida sotishda muhim ulush import qilinadigan mahsulotlardan iborat, shuning uchun ham olinadigan soliq tushumlarining yuqori ulushi aynan bilvosita soliqlar hisobidan shakllanadi. To‘g‘ri soliqqa tortilmagan, qayd etilmagan daromadlar egri soliqlarga tortiladi. Shunday qilib, egri soliqlar shu kungacha budjet daromadlarining eng yuqori qismini tashkil etadigan soliq turi hisoblanib, budjet tizimining barqaror va bitmas-tuganmas shakllantiruvchi manbalaridan biri hisoblandi.

Egri soliqlar davlatga uchun jozibadordir, chunki ularning xazinaga tushadigan tushumlari soliq to‘lovchilarning moliyaviy faoliyati bilan bevosita bog‘liq emas va yuqori fiskal samaraga ega. 2024-yilda bilvosita soliqlar Davlat budjeti daromadlarning asosiy qismini tashkil qilib, umumiy daromadlar prognozining 41,3 foizini tashkil etadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha tushumlar 74,0 trln so‘mni, aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 22,7 trln so‘mni, yoki bojxona bojlari bo‘yicha tushumlar 14,8 trln so‘mni tashktl etadi. 2024-yilda Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari taqchilligi 3,1 foiz miqdorida prognoz qilinayotgan bo‘lib, 2025–2026-yillarda taqchillik 1,8-2,2 foizgacha pasayishi prognoz qilingan[1]. Respublikamizda iqtisodiy o‘sishni izchil davom ettirilishi, fiskal siyosatning yuritilishi orqali barqarorlikni ta’minlanishi hisobiga erishilmoqda. Hozirgi kunda izchil olib borilayotgan soliq siyosati oldingi xususiyatlarii bilan ajralib turishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham soliqlarni undirish islohotlari bilan bog‘liq tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda.

1 Budjetnoma 2024–2026-yil. Toshkent, 2023-yil.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Soliqlar nazariyasining xorijiy vakillari orasida bir qator tadqiqotchilar mavjud, ular orasida: Ch. Adams ,D. Lokk ,U. Peti, A. Smit, D. Rikardo, J. Keyns, J. B. Say, N. Kanar, P. Pru-don, F. Lassalus, K. Pay, A. Sheffle, A. Vagner, A. Kurno, R. Mayer, K. Viksel, M. Pantaleone, F. Kontigliani, E. Seligman, A. Marshall, P. Samuyelson, R. Musgrave, K. Makkonnell, S. Bru va soliqqa tortish nazariyasini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan hozirgi zamon xorijiy iqtisodchi olimlaridan De-Fovill, F. Lassal, Bryu, M. Blaug, P. Samuelson, K. Makkonnel, G. Menkyu va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan.

Soliq nazariyasi, soliqlarni o‘rganish tarixi, metodologiyasi va amaliyotining ayrim masalalari bo‘yicha zamonaviy rossiyalik iqtisodchilardan N.N. Tyupakov, Yu.N.Pavlenko, M.R. Pinskaya, D.A. Artemenko, M.O.Kleymenova, Ye.N Golik, G.P Tolstopyatenko, A.V. Ugryumov, A.F. Xapilin, I.A.Sidilin va boshqalar egri soliq undirishning nazariy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan .

Mamlakatimiz milliy soliq tizimi va soliqqa tortish amaliyotini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan olim va amaliyotchi mutaxassislarimizdan A.H.Toshqulov, S.K.Xudoyqulov, T. Malikov, Sh. Gataulin, I. Zavalishina, I. Niyazmetov, X. Sobirov, Sh. Toshmatov, B. Toshmurodova, N. Xaydarov, Q. Ahyoyevlarni ilmiy ishlarini ham misol keltirish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Egri soliqlarning undirishga oid tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalaniladi. Soliq islohotlarining rivojlanish tendensiyalarini umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa, jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalaniladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Davlat budjetini shakllantirishda soliq tushumlarining yuqori ulushi bilvosita soliqlar hisobidan to‘ldiriladi. To‘g‘ri soliqqa tortilmagan, qayd etilmagan daromadlar egri soliqlarga tortiladi. Shunday qilib, egri soliqlar shu kungacha budjet daromadlarining eng yuqori qismini tashkil etadigan soliq turi hisobladi.

Soliq tizimini isloh qilish uchun bir qator siyosatchilar bir qator maqsadlar belgilashni e’tirof qildilar. Bularning ichida eng muhimlari: nisbatan soddalik (simplicity), barqarorlik (stability), adolatlilik (fairness fairness), daromadlarni muvozanatli taqsimlash (adequate revenue) va iqtisodiy samaradorlik (economic efficiency), fiskal samaradorlik (fiscal efficiency) kabi tamoyillar asosidagi pirovard maqsadlar ilgari surilishini e’tirof etadilar (C. Alan Garner)[2]. Soddalilik soliq ma’murchiligini takomillashtirish maqsadida soliqlarni hisoblash va budjetga o‘tkazishdagi xarajatlarni kamaytirish orqali davlat moliyaviy faoliyatida iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shuningdek, soliq tizimining soddaliligi soliq to‘lovchilarning soliqlar to‘g‘risidagi bilimlarini, soliq madaniyatini oshirishga imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Buning natijasida soliq to‘lovchilar soliqlarni to‘g‘ri hisoblash va o‘z vaqtida soliqlarni to‘lash soliq qonunchiligini buzilish holatlarini kamayishiga zamin yaratadi. Egri soliqlarning undilishining asosiy maqsadi va funksiyasi fiskal funksiya hisoblanadi. Fiskal samaradorlik soliq yukining budjetga egri soliqlar tushumlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Respublikamizda iqtisodiy o‘sishni izchil davom ettirilishi, fiskal siyosatning yuritilishi orqali barqarorlikni ta’minlanishi hisobiga erishilmoqda. 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi “O‘zbekiston–2030” 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard AQSH dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, kelgusi 7 yilda asosiy kapitalga 250 mlrd AQSH dollardan ortiq investitsiyalarni o‘zlashtirish va unda 110 mlrd AQSH dollardan ortiq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, 2030-yilga borib yillik eksport hajmini esa 45 mlrd AQSH dollarga yetkazish, Davlat qarzini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 50 foizdan oshirmaslik vazifasini ta’minlash maqsad qilingan. Prognozlarga ko‘ra 2023–2024-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti 5,6-5,8 foiz doirasida, 2025–2026-yillarda mos ravishda 6,2 va 6,4 foizgacha o‘sishi ko‘zga tutilgan[3].

Quyidagi 1-jadvalda iqtisodiy o‘sishdan kelib chiqib 2025–2026-yillarda Davlat budjeti daromadlari prognozi va mo‘ljallari keltirilgan.

2 C. Alan Garner Consumption Taxes: Macroeconomic Effects and Policy Issues
3 https://api.mf.uz/media/document_files/budjetnoma_2024-2026_u7oVHcU.pdf

1-jadval: Soliq turlari bo'yicha Davlat budjeti daromadlari prognozi va mo'ljallari, trln so'm[4]

| Soliq turlari | 2023-yil | 2024-yil prognoz | 2025-yil mo'ljal | 2026-yil mo'ljal |
|---|---|---|---|---|
| Bevosita soliqlar | 73,3 | 85,6 | 102,8 | 120,4 |
| Bilvosita soliqlar | 85,9 | 111,6 | 144,0 | 163,4 |
| Resurs soliqlari | 28,3 | 31,8 | 35,7 | 39,9 |
| Boshqa daromadlar | 41,6 | 41,6 | 48,5 | 55,3 |

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat budjeti daromadlari 2023-yil 85,9 trln so'mni, 2024-yil prognozi 111,6 trln so'mni tashkil qilib, 2025-yilda 144,0 trln so'mdan 2026-yilda 163,4 trln so'mga oshishi mo'ljallangan bo'lib eng yuqori qismi bilvosita soliqlarga to'g'ri keladi. Fikrimizcha bunday o'sishlarning prognoz qilinishiga qo'shilgan qiymat solig'i zanjirining yaxlitligini va uzuluksizligini ta'minlash maqsadida ayrim imtiyozlarning, masalan, dori vositalari, tibbiyot va veterinariya xizmatlari buyumlari va xizmatlari uchun imtiyozlarini bekor qilinishi, shuningdek ayrim oziq-ovqat xamda nooziq-ovqat mahsulotlarining, yangi qurilish texnikalari hamda yuk tashish transport vositalari, turizm xizmatlaridagi bojxona to'lovlari imtiyozlarning muddati tugayotganligi, shuningdek soliq siyosati va ma'muriyatchiligiga oid bir qator o'zgartirishlar sabab bo'lmoqda.

Quyidagi diagrammadalar yordamida 2022–2024-yillardada davlat budjeti tuzilmasini tahlil qilishimiz mumkin.




**2022-yil**




**2023-yil**




**2024-yil**

1-rasm: Egri soliqlarning 2022–2023-yil Davlat budjeti daromadlari bajarilishi, 2024-yil prognozi (trln so'm)[5]

1-rasmda ko'rinib turibdiki egri soliqlardan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar ancha yuqori bo'lib, prognoz ko'rsatkichlari 2022-yilga nisbatan 4,7 trln so'm kam yoki 92,8 foizga bajarilgan. Haqiqatda ijrosi 60,0 trln so'm bo'lishi kutilgan. Fikrimizcha energoresursni qazib chiqarish, shuningdek qayta ishlash hajmi pasayishi va tariflarni kechiktirilishi ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek nomaqbul ob-havo tufayli korxonalarning xarajatlari oshib ketishi, jahon bozorlarida paxta, don va kimyoviy o'g'itlar narxi pasayishi hamda soliq tushumlari yo'qotilishiga olib kelgan. Aksiz solig'i bo'yicha tushumlar esa belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 1,5 trln so'm kam bo'lib 91,7% bajarilgan. Haqiqatda esa 16,4 trln so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2022-yil daro-

4 O'zbekiston Respublikasi moliya va iqtisodiyot vazirligi Budjetnoma 2024–2026-yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

5 O'zbekiston Respublikasi moliya va iqtisodiyot vazirligi Budjetnoma 2024–2026-yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

madlarga qaraganda 2,9 trln so‘mga oshgan bo‘lib, 21,8 foizni tashkil etadi. Aksiz solig‘i tushumlarni prognozga ko‘ra kamayganligi ob-havoning juda sovuq bo‘lganligi oqibatida avtomobillarga yoqilg‘i quyish shaxobchalari ma’lum vaqt ishlamaganligi, shu bilan birga AI-80 avtobenzing aksiz solig‘i “nol” stavkada bo‘lganligi ham ta’sir ko‘rsatgan deb xisoblaymiz. Tahlil natijalaridan bojxona bojlarning tushumlari mo‘jallangan prognozga ko‘ra 2,8 trln so‘mga oshgan bo‘lib, 142,0 % bajarilgan. Haqiqatda esa 9,6 trln so‘m bo‘lishi kutilgan. 2022-yil daromadlargqaraganda 3,8 trln so‘mga, ya’ni 66,8 % ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.




2-rasm: Soliq turlari bo‘yicha 2022–2023-yillarda davlat budjeti daromadlari tuzilmasi[6]

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2022-yilda davlat budjeti daromadlarining shakllanishida bilvosita soliqlar 35,4 foizni, 2023-yilda 36,0% foizni tashkil etib sezilarli ravishda oshgan. Shuningdek davlat budjeti daromadlari tarkibi bevosita soliqlar ulushi 31,6 foiz, bilvosita soliqlar 35,9 foiz, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i 12,1 foizni tashkil etib, bilvosita soliqlarning salmog‘i yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin.

Fikrimizcha bunga asosiy sabab soliq to‘lovchilarning soni yildan yilga oshib borayotganlagi ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi 2-jadvalda bilvosita soliq turlari bo‘yicha 2018–2024-yillar mobaynida soliq to‘lovchilar sonini taxlil qilishimiz mumkin.

2-jadval: Respublika bo‘yicha 2018–2024-yillarda bilvosita soliq turlari bo‘yicha to‘lovchilar soni (nafar)7

| Ko‘rsatkichlar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Respublikada jami bilvosita soliq tulovchilar soni | 39043 | 88149 | 119329 | 148130 | 14990 | 169039 | 188088 |
| shu jumladan | | | | | | | |
| QQS to‘lovchilari soni | 38 745 | 84 479 | 115 572 | 143 701 | 145410 | 164449 | 183488 |
| Aksiz solig‘i to‘lovchilari soni | 298 | 3 670 | 3 757 | 4 429 | 4580 | 4590 | 4600 |

2-jadval tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, respublikada jami bilvosita soliq to‘lovchilar soni 2018-yilga nisbatan 2024-yilda soliq to‘lovchilar soni qariyb 4,5 baravar oshgan. Bilvosita soliq to‘lovchilarning aksariyat qismi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarini tashkil etib, 2018-yildan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari soni keskin oshgan. Bunday o‘zgarishga sabab 2017-yil 18-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[8] PF-5116 sonli Farmoni binoan soliq ma’murchiligi tizimida eng ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa etib belgilanganligidir.

6 O‘zbekiston Respublikasi moliya va iqtisodiyot vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
7 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va www.stat.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
8 https://lex.uz/docs/3271159

Quyidagi 3-rasmda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining yirik soliq to‘lovchilarining ulushi keltirilgan.




3-rasm: O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining yirik soliq to‘lovchilarining ulushi[9]

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar soni 2023-yilda 164,4 mingtani tashkil etib sezilarli 11,6 foizga , jami 183,5 mingta ko‘paygan. Fikrimizcha bunday ijobiy o‘zgarishlarining sabablaridan biri QQS undirish mexanizmini raqamlashtirish borasida ulkan ishlar olib borilganligi, shuningdek QQS bo‘yicha yagona avtomatlashtirilgan tizimi QQS to‘lovchilari reyestri shakllantirilganligidir. Shuningdek, QQS manfiy tafovut so‘mmalari “my.soliq.uz” portali orqali qoplanadi. QQS to‘lovchilarining 93 foizi elektron hujjat aylanish tizimidan foydalanishi xam ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda.

Ma’lumki dunyoning deyarli barcha mamlakatlari singari O‘zbekiston Respublikasida ham soliq tizimida egri soliqlar budjet daromadlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonni quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval: Egri soliqlar tushumlarining 2017–2023-yillar dinamikasi tahlili (mlrd. so‘m)10

| Ko‘rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2022-yilga nisbatan farq | % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Respublika bo‘yicha jami | 37750,9 | 54202,8 | 83323,9 | 103561,7 | 127970,4 | 201863,7 | 29856,9 | 29856,9 | 114,8 |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| soliq tushumlari | 33 885,8 | 49 941,8 | 80 229,5 | 97 979,1 | 120162,5 | 71390,2 | 83325,8 | 11935,6 | 116,7 |
| QQS | 8 634,1 | 13 734,8 | 23 660,7 | 20 485,6 | 25 572,1 | 52189,4 | 57885,3 | 5695,9 | 110,9 |
| Aksiz solig‘i | 6 138,4 | 6 547,3 | 11 603,0 | 10 838,8 | 12 778,9 | 13455,0 | 15834,4 | 2379,3 | 117,7 |
| Bojxona boji | 1 784,6 | 1 543,9 | 2 105,1 | 2 086,4 | 4 819,0 | 5745,7 | 9606,1 | 3860,4 | 167,2 |

9 aryo.uz/k/2024/05/30/ozbekistonliklar-2023-yilda-davlat-byudjetiga-qancha-soliq-tolagani-malum-boldi
10 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va www.stat.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2017-yilga nisbatan 2023-yilga egri soliq tushumlari qariyb 3 baravarga oshgan. 2023-yilda bilvosita soliq tushumlari 83,32 trillion so'mga yetib, shundan qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi 57,9 trillion so'm, aksiz solig'i 15,8 trillion so'mni tashkil etadi. 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 11935,6 farq mavjud.

Vazirlik tahliliga ko'ra, o'tgan yili qo'shilgan qiymat solig'idan manfiy farqni qoplash uchun soliq to'lovchilarga 21,6 trillion so'm miqdorida QQS va keshbek so'mmalari qaytarib berilgan. "Energoresurs qazib chiqarish, qayta ishlash hajmining kamayishi, dunyo bozorida paxta tolasi, don va kimyoviy o'g'itlar narxi pasayishi hamda yil boshida kuzatilgan anomal sovuq sharoitida korxonalar xarajatining oshishi va korxonalar faoliyatining vaqtincha to'xtatilganligi soliq tushumlari yo'qotilishiga olib keldi. Shu bilan birga, mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan va tadbirkorlik subyektlari tomonidan yakuniy iste'molchilarga sotiladigan AI-80 ruso'mli avtobenzin mahsuloti uchun aksiz solig'ining "nol" stavkasi belgilanishi hisobiga 2023-yilda tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida 1,3 trillion so'm qoldirildi", — deya holatni izohlagan Iqtisodiyot va moliya vazirligi[11].

Egri soliqlar tushumlariga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi rasmdan ko'rishimiz mumkin (4-rasm):




4-rasm: Egri soliqlar bo'yicha budjetga tushumlar darajasiga ta'sir etuvchi omillar

Yuqoridagi 4-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, egri soliq tushumlariga bir qator omillar, jumladan ma'muriy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar tv'sir ko'rsatadi. Egri soliq tushumlariga ta'sir etuvchi ma'muriy omillarga asosan soliq mexanizmining qonunchilik bazasini shakllanishi, egri soliqqa tortish mexanizmi va soliq ma'murchiligining takomillashganligiga bog'liqdir.

Hozirgi sharoitda ma'muriy omillarni o'zida mujassamlashtiruvchi soliq mexanizmi qonunchilik bazasini shakllantirish, elektron hisobvaraq-faktura tizimining joriy etilishi QQS bo'yicha soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha bir qator islohotlar olib borilmoqda.

## XULOSA

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirgi vaqtda egri soliqlar, ayniqsa QQS ko'pgina rivojlangan mamlakatlar singari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Qo'shilgan qiymat solig'i davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning ishonchli va barqaror bazasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun elektron hisobvaraq-faktura mexanizmini joriy etish; soliq to'lovchilari uchun zamonaviy soliqqa tortish qoidalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Mavjud muammolarni o'rganib, muammolarni bartaraf etish uchun elektron hisobvaraq-fakturalardan foydalanish, soliq to'lovchilar va soliq organlari bilan aloqalarini qiskartirish, buning uchun elektron xujjat aylanishini yaratish va soliq hisobotini avtomatik ravishda tuzish imkoniyatini ta'minlash lozim. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish qulay shart-sharoitlarni yaratish va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida yangi elektron xizmatlar ishlab chiqish, shuningdek soliq bo'yicha maslahatlar olish va soliq qonunchiligidagi

11 https://daryo.uz/k/2024/05/30/ozbekistonliklar-2023-yilda-davlat-byudjetiga-qancha-soliq-tolagani-malum-boldi

yangiliklar bilan tanishishtirish va eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash va kengaytirishdan lozim. Ushbu siyosatning muvaffakiyatli amalga oshirilishi soliq to'lovchilarning vaqt yuqotilishini minimallashtirish va soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarni imkon qadar qulay qilish xamda soliq tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2013-yil 26-dekabrdagi O'RQ360son Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi "Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-812-son Qonuni.
4. Голик Е. Н. Цифровизация администрирования НДС в системе обеспечения экономической безопасности doi: 10.22394/2079-1690-2021-1-2-103-109-
5. Карпова О. М. Трансформации налога на добавленную стоимость в условиях форсированной цифровизации российской экономики текст научной статьи по специальности "экономика и бизнес" журнал Вестник Томского государственного университета. Экономика2019В
6. Что такое цифровизация? URL: https://www.e-xecutive.ru/management/ itforbusiness/1989667-chto-takoe-tsifrovizatsiya?scrolltop=1832 (дата обращения: 25.01.2019-
7. https://www.interfax.ru/world/813644
8. https://api.mf.uz/media/document_files/budjetnoma_2024-2026-
9. https://daryo.uz/k/2024/05/30/ozbekistonliklar-2023-yilda-davlat-byudjetiga-qancha-soliq-tolagani-malum-boldi www.stat.uz.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL:  30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.